NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# NAVOIY VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

### *2021- YIL YANVAR-IYUL*

Sanoat statistikasi bo‘limi
Tel.: 79-223-33-29

# Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-iyul)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 41 202,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 106,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (83,8 %) ni tashkil etdi.







***B**-Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 16,2 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 6,0 % ga o‘sishiga xizmat qildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning - 2,6 % ga hamda suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 4,2 % ga pasayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*

*(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)*




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 551,5 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,0 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, *% da*




## Ishlab chiqaradigan sanoat

*(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)*




2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34 520,7 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,8 % ni tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*







O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2020- yilning yanvar-iyul oylarida - 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 7,4 % (5,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 85,7 % (87,5 %) va quyi texnologiyalisi - 6,7 % (6,8 %) ni tashkil etdi.

| | Yuqori texnologiyali | O‘rta-yuqori texnologiyali | O‘rta-quyi texnologiyali | quyi texnologiyali |
|---|---|---|---|---|
| **Ulushi** *% da* | | | | |
| 2020- y. | 0,3 | 5,4 | 87,5 | 6,8 |
| 2021- y. | 0,2 | 7,4 | 85,7 | 6,7 |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,9 % (2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 91,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 76,8 % (2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 104,4 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,6 % (2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 113,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,9 % (2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 108,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,4 % (2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 141,7 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 7,3 ming m³ azot (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 135,1 % ga o‘sgan), 48,8 ming tonna natriy gidroksidi (kaustik soda) (127,2 %), 362,4 ming tonna suvsiz ammiak (157,4 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**Natriy gidroksidi (kaustik soda)**




**Suvsiz ammiak**




**Sement**




**Azot**




**Tvorog va tvorogdan mahsulotlar**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyul | 2021- yil yanvar-iyul | 2020- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan o‘sish, % da |
|---|---|---|---|
| **Portlandsement,** ming tonna. | 2 073,0 | 2 202,4 | 106,2 |
| **Azot,** ming $m^3$ | 5,4 | 7,3 | 135,1 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni**, tonna | 39 870 | 36 705 | 92,1 |
| **Natriy gidroksidi (kaustik soda),** ming tonna | 38,4 | 48,8 | 127,2 |
| **Kislorod**, ming $m^3$. | 90,3 | 84,6 | 93,7 |
| **Suvsiz ammiak, ming tonna** | 230,3 | 362,4 | 157,4 |
| **Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni og‘irligi 600 g (buxanka),** tonna. | 271,9 | 276,2 | 101,6 |
| **Tvorog va tvorogdan mahsulotlar,** tonna | 51,8 | 49,1 | 94,8 |

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan suvsiz ammiak 157,4 % ga hamda azot mahsulotining 135,1 % ga o‘sishi qayd etildi.

Shuningdek, yumshoq bug‘doy va spelta uni 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan - 92,1 % ni tashkil qildi.

## Metallurgiya sanoati

*(2021- yil yanvar-iyul)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati ulushi 78,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 5,1 % ga o‘sgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 76,8 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa 4,4 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 26 507,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-iyul)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,9 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 91,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 339,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyul)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 9,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 005,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-iyul)*




2020- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 103,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,3 % ni, fizik hajm indeksi 155,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 183,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

# Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

*(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 080,2 mlrd. so‘mni jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,1 % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 97,4 % ni tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,** *% da*







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyul | 2021- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 6 770,6 | 6 296,9 | - 473,7 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 2 057,2 | 2 598,4 | 541,2 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)*







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 49,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*







| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyul | 2021- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 16 587,4 | 34 603,6 | 18 016,2 |
| **Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 9,3 | 81,4 | 72,1 |
| **Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig‘ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar,** *tonna* | 23 282,3 | 25 482,0 | 2 199,7 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 2,1 (bar.)ga va xavfli

(zaharli) sanoat chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar - 8,8 (bar.) ga hamda boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig‘ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar - 9,4 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 268,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 105,6 % ni tashkil etdi, uning jami sanoatdagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,2 % (2020- yil yanvar-iyul oylarida 0,1 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g‘ri kelib 29,9 % ni, Karmana tumani 19,1 % ni, Qiziltepa tumani 12,4 % ni, Xatirchi tumani 12,2 % ni hamda Navbahor tumani 7,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (105,6 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Zarafshon shahrida (123,5 %) hamda Karmana tumanida (110,9 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy viloyati. | 2 268,1 | 100,0 | 105,6 |
| Navoiy sh. | 677,5 | 29,9 | 100,8 |
| Navbahor t. | 171,0 | 7,5 | 106,1 |
| Zarafshon sh. | 155,9 | 6,9 | 123,5 |
| Nurota t. | 143,5 | 6,3 | 106,1 |
| Karmana t. | 432,6 | 19,1 | 110,9 |
| Tomdi t. | 20,3 | 0,9 | 100,9 |
| Konimex t. | 56,0 | 2,5 | 101,0 |
| Uchquduq t. | 52,9 | 2,3 | 101,2 |
| Qiziltepa t. | 281,5 | 12,4 | 108,6 |
| Xatirchi t. | 276,9 | 12,2 | 100,1 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g‘ri kelib 37,3 % ni, Karmana tumani 22,1 % ni, Xatirchi tumani 8,5 % ni, Nurota tumani 8,2 % ni, Qiziltepa tumani 7,4 % ni hamda Navbahor tumani 7,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (103,4 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Zarafshon shahrida (122,7 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy viloyati. | 1 318,6 | 100,0 | 103,4 |
| Navoiy sh. | 491,6 | 37,3 | 101,8 |
| Navbahor t. | 92,3 | 7,0 | 110,2 |
| Zarafshon sh. | 68,8 | 5,2 | 122,7 |
| Nurota t. | 108,3 | 8,2 | 107,4 |
| Karmana t. | 291,7 | 22,1 | 102,5 |
| Tomdi t. | 9,4 | 0,7 | 101,0 |
| Konimex t. | 29,3 | 2,2 | 101,3 |
| Uchquduq t. | 17,7 | 1,4 | 99,4 |
| Qiziltepa t. | 97,0 | 7,4 | 99,6 |
| Xatirchi t. | 112,5 | 8,5 | 98,9 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga 19,6 % ni, Qiziltepa tumaniga to‘g‘ri kelib 19,4 % ni, Xatirchi tumani 17,3 % ni, Karmana tumani 14,8 % ni hamda Zarafshon shahrida 9,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Karmana tumanida (124,2 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy viloyati. | 949,5 | 100,0 | 108,7 |
| Navoiy sh. | 185,9 | 19,6 | 98,3 |
| Navbahor t. | 78,7 | 8,3 | 101,6 |
| Zarafshon sh. | 87,1 | 9,2 | 124,2 |
| Nurota t. | 35,2 | 3,7 | 102,2 |
| Karmana t. | 140,9 | 14,8 | 133,6 |
| Tomdi t. | 10,9 | 1,2 | 100,9 |
| Konimex t. | 26,7 | 2,8 | 100,7 |
| Uchquduq t. | 35,2 | 3,7 | 102,0 |
| Qiziltepa t. | 184,5 | 19,4 | 114,0 |
| Xatirchi t. | 164,4 | 17,3 | 101,0 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 881,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 2,1 % ni tashkil etdi.

# Navoiy viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy viloyati. | 41 202,3 | 100,0 | 106,7 |
| Navoiy sh. | 35 265,6 | 85,5 | 107,0 |
| Navbahor t. | 355,7 | 0,9 | 118,0 |
| Zarafshon sh. | 186,4 | 0,4 | 108,2 |
| Nurota t. | 173,2 | 0,4 | 106,8 |
| Karmana t. | 3 991,9 | 9,7 | 107,2 |
| Tomdi t. | 23,7 | 0,1 | 106,5 |
| Konimex t. | 67,8 | 0,2 | 105,4 |
| Uchquduq t. | 88,7 | 0,2 | 115,3 |
| Qiziltepa t. | 353,4 | 0,9 | 109,1 |
| Xatirchi t. | 695,9 | 1,7 | 112,7 |

## Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati, *% da*

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Navbahor (2020- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 118,0 %), Uchquduq (115,3 %), Xatirchi (112,7 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Zarafshon shahrida (2020- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 123,5 %), Karmana tumanida (110,9 %), Qiziltepa tumanida (108,6 %) hamda Nurota tumanida (106,1 %) sezilarli darajada oshdi.

**Navoiy viloyati jami sanoat**
**mahsulotlari hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da**

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Navoiy shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 85,5 %) hamda Karmana (9,7 %), Xatirchi (1,7 %), Navbahor ( 0,9 %), Qiziltepa ( 0,9 %), tumanlari  hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Tomdi ( 0,1 %), Konimex (0,2 %),  Uchquduq (0,2 %), Nurota (0,4 %) tumanlari hamda Zarafshon (0,4 %) shahri hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.






**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

*(2021- yilning yanvar-iyul oylarida, % da)*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 479,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi tumanida (100,0 %), Konimex tumanida (100,0 %), Zarafshon shahrida (99,0 %), Nurota tumanida (94,8 %), Qiziltepa tumanida (82,7 %) tashkil etdi.




Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Navoiy shahrida (1,6 %), Karmana (15,7 %), Xatirchi (40,8 %), Navbahor (49,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni,** *birlikda*
*(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra)*

Bugungi kunda viloyatimizda 3 438 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda,shundan 750 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,8 %) Navoiy shahriga, 582 tasi (16,9 %) Karmana tumaniga, 428 tasi (12,4 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni,** *birlikda*
*(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra)*




2021- yil yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 612 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 89 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 14,5 %) Navoiy shahrida, 85 tasi (13,9 %) Uchquduq tumanida, 80 tasi (13,1 %) Karmana tumanida, 78 tasi (12,7 %) Xatirchi tumanida, 57 tasi (9,3 %) Zarafshon shahrida, 56 tasi (9,2 %) Qiziltepa tumanida, 54 tasi (8,8 %) Navbahor tumanida, 34 tasi (5,6 %) G'ozg'on shahrida, 31 tasi (5,1 %) Nurota tumanida, 30 tasi (4,9 %) Tomdi tumanida hamda 18 tasi (2,9 %) Konimex tumanida tashkil etildi.